O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”
Guliston davlat pedagogika
instituti rektori
J. X. Karshibayev
_____ 2024-yil

10.00.06 – “QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK, CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK IXTISOSLIGI” BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI DASTURI

Guliston – 2024

Tuzuvchilar: B. Sh. Kurbanov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, GulDPI O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi mudiri

Sh. G. Musurmankulova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, GulDPI O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: N. A. Ayaqulov ,filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, GulDPI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori

Mazkur dastur Ijtimoiy-gumanitar fakultetining 2024-yil «____» _____ dagi majlisida muhokama qilinib, ma‘qullangan (___-sonli bayonnoma)

Ijtimoiy-gumanitar fakulteti dekani **B. A. Abdullayev**

KIRISH

Mamlakatimiz ravnaqi, ta'lim sohasi taraqqiyoti va chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslikning ham o'z maqsadi va vazifalari bor. Zotan, til azaldan xalqlarning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-siyosiy integrasiyasi uchun asosiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Adabiy aloqalarni rivojlantirish esa xalqlar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarjimashunoslik sohasi barcha xalqlarning moddiy va nomoddiy merosi, madaniyati, urf-odatlari hamda ilmiy ishlar bilan yaqindan tanishishga imkon beruvchi kalit vazifasini o'taydi. Shunday ekan, yurtimiz iqtisodining gullab yashnashida ushbu sohalarning alohida o'rni bor.

Mazkur dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur qiyosiy adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolar, zamonaviy yo'nalishlar, nazariy ta'limotlar, adabiy aloqalar va lingvistik maktablar, lingvistik konsepsiyalarga oid bilim va ko'nikmalarni tekshirish va baholash uchun ishlab chiqilgan.

FANNI O'ZLASHTIRISHGA QO'YILGAN TALABLAR

Talabgorlar ***qiyosiy adabiyotshunoslik*** yuzasidan:

- Zamonaviy chet el adabiyotining mintaqaviy xususiyatlari;
- XX va XXI asrda adabiy jarayonni o'ziga xosligi;
- Sharq va G'arb adabiyotlararo aloqalar tarixi;
- Adabiyotni qiyosiy o'rganishda muhim ilmiy konsepsiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Zamonaviy adabiyot rivojlanishini tahlil qilish;
- Turli yozuvchilar asarlarining uslubiy rang-barangligini aniqlash va farqlash;
- Xorijiy yozuvchilar ijodini konseptual axamiyatini anglash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- Ilmiy izlanish metodlarini amalda qo'llash;
- Turli adabiyotshunoslik metodlaridan foydalanib badiiy asarni tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak

Chog'ishtirma tilshunoslik yuzasidan:

- Turli tizimli va qardosh tillar grammatik jihatdan qiyoslash vachog'ishtirish konuniyatlarini bilish;
- Qardosh bo'lgan va bo'lmagan tillarni, xorijiy va ona tilinichog'ishtirish va qiyoslashni bilish;
- turli tizimli tillarni qiyoslashning ilmiy metodlarini farqlay olish malakalariga ega bo'lishi talab etiladi.

- Qiyosiy tilshunoslikning rivojlanishiga hissa qo'shgan Yevropa, Rossiya va O'zbekiston olimlarini olib borgan tadqiqotlari mazmunini va ularning fanga qo'shgan hissasini bilish;
- Qiyosiy tilshunoslik fanining fundamental bilimlar asoslarini egallash;
- Turli sinxron va diaxron tadqiqot metodlarini farqlash va ularning xususiyatlarini bilish;
- Qarindosh bo'lgan va bo'lmagan tillarni qiyoslab to'g'ri ilmiy xulosachiqarishni bilish;
- kasbiy faoliyat doirasida matnlarning madaniy adaptasiya va chet tili nutqining stilistik qonuniyatlariga rioya qilish (yetarlicha baho bermaslik, ortirib baholash) bilish;
- O'zbekistonda qiyosiy tipologiya va qiyosiy tilshunoslikda qo'lga kiritilgan yutuqlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- jahon olimlarninig qiyosiy tilshunoslik sohasida yaratgan va ma'lum darajada muhim bo'lgan nazariy ishlarni tahlil qilishni bilish;
- qiyosiy tilshunoslik sohasida yozilgan ilmiy maqolalarni, monografiyalarni va tadqiqotlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati;
- qiyosiy tilshunoslik bo'yicha ilmiy adabiyotlardan ilmiy ish yozishuchun samarali foydalanish tajribasiga ega bo'lish;
- til birliklari va matnni qiyoslashda qiyosiy tilshunoslik metodlarini qo'llash;
- qiyosiy tilshunoslik atamalarni tahlil qilish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Tarjimashunoslik yuzasidan:

- lingvistik tarjimashunoslikning tadqiqot metodlari, metodologiyasi, turli nazariy qarashlar va yetakchi konsepsiyalar, tarjima nazariyasiga oid fundamental bilimlar asoslari;
- tarjima – madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida
- tarjima faoliyatini amalga oshirishda lingvomadaniyatshunoslik roli va ahamiyati;
- tillararo muloqotda tarjimaning pragmatik va lingvomadaniy muammolari va qiyinchiliklari;
- ijtimoiy-madaniy konnotasiya, tarjimonning "soxta do'stlari"; lingvomadaniy birliklarni va madaniy ma'lumotlarni tarjima qilish mezonlari, strategiya va usullari;
- lingvistik tipologiya xususiyatlari, chet va ona tilidagi leksik, grammatik, stilistik mutanosiblik;
- lingvomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo muloqotga tegishli maktablar va ularning asosiy yo'nalishlari, nazariyalar, tushunchalar, ilmiy apparati, qonuniyligi, ta'riflash va tadqiqot birliklari, parametrlari, model va tadqiqot metodikalari, xususiyatlari, aspektlari, birliklari va xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- lakunalar nazariyasi, leksik va vaziyatli realiya, kontekstual psevdoekvivalentlik va Yu.Naydaning "dinamik ekvivalentlik" konsepsiyasi;
- turli uslubdagi matnni tahlil va tahrir qilish va tarjimaning umumiy yo'nalishini tanlash, tarjima mazmuni va terminlarni to'g'ri tanlash yo'llari va metodlarini;

- jahon olimlarninig tarjima fani sohasida yaratgan va ma'lum darajada muhim bo'lgan nazariy ishlarni bilishi kerak;
- kasbiy faoliyat doirasida matnlarning madaniy adaptasiya va chet tili nutqining stilistik qonuniyatlariga rioya qilish;
- madaniyatlararo muloqotni yozma va og'zaki ravishda amalga oshirish maqsadida chet tili muloqot kompetensiyasini egallash (S1 daraja) ;
- leksik ekvivalentlik normalarga rioya kilib, grammatik, sintaktik, stilistik va lingvomadaniy muvofiqlikka va tarjima kilingan matnni temporal xususiyatlariga amal qilgan holda tadrijiy tarjima va varoqdan og'zaki tarjimalarni amalga oshirish;
- bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida lingvomadaniy aspektlarni inobatga olgan holda turli uslub va turdagi matnlarni og'zaki va yozma tarjima qilish;
- dastlabki bayonni aniq tushunishga, tarjima jarayonini tayyorlashga, kerakli bo'lgan ma'lumotni maxsus adabiyot va internet saytlaridan qidirishga yordam beradigan matnni tarjimadan oldin tahlil qilishusulini qo'llash;
- tarjima metodlarini bilish va amaliyotda qo'llay olish;
- tarjima matnlarini asliyat bilan qiyoslab tanqidiy tahlil qilish prinsip va uslubiyatini bilish;
- turli matnlarni leksik-semantik tahlil qilish va matndagi grammatik konuniyatlarini aniqlay bilish;
- chet va ona tilidagi leksik va grammatik mutanosibliklarni farqlay olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

DASTURNING MAZMUNI

Qiyosiy adabiyotshunoslik

Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining rivojlanish jarayonlari. Chet el adabiyotshunosligi va qiyosiy adabiyotshunoslik fanining evolyusion bosqichlari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fani tarixi va nazariy asoslari. Qiyosiy-tarixiy uslub tushunchasini paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. Qiyosiy-tarixiy jarayonlarni uyg'unligi. Adabiy janr tushunchasi. Epos xususiyatlari. Lirik janr xususiyatlari. Liro-epik asarlar. Dramaturgiya va liro-dramaturgiya. Dramaturgiyada lirizm va epos. Eposda milliy-tarixiy janrlar. Eposda romantik janrlar. Satirada janr xususiyatlari. O'rta asr va Uyg'onish davri G'arb va Sharq adabiyotining taraqqiyoti O'rta asr va Uyg'onish davri G'arb va Sharq adabiyotining qiyosiy tahlili, taraqqiyot yo'nalishlari. Og'zaki xalq ijodining adabiyotshunoslik rivojidagi o'rni. Og'zaki xalq ijodi janrlari. Uyg'onish davri adabiyotining ahamiyati. Uyg'onish davri adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi. Sinxron va diaxron ta'sirlar. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g'oyalarga ta'siri. Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g'oyalarga ta'siri. XIX asr mutafakkirlari pozisiyasining qiyosiy-chog'ishtirma tahlili. Gegel va Chernьshevskiylarning adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va g'oyalari ahamiyati. AQSh (R.Uellek. V.Friderix), Germaniya (M.Kesting, K.Vays, K.Xamburger), Fransiya (Klod Pishua, Anri Granjar), Ruminiya (A.Dima), Slovakiya (D.Dyurishin), Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Milliy, mintaqaviy va jahon adabiyoti tushunchalari. Adabiy oqimlar va yo'nalishlar. Adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlarida adabiy oqimlar. Sentimentalizm va romantizm adabiy yo'nalishlari xususiyatlari. Realizmning adabiy yo'nalishlari. Adabiyot, modernizm va postmodernizm. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. Postmodernizm va "O'zga so'z" muammosi. San'atda va hayotda shakl va ma'no tushunchasi. Shakl va ma'no – falsafiy tushunchalar. Shakl va ma'no o'rtasidagi munosabat. Asarning «ichki shakl» va«tashqi shakl»i va uning san'at va adabiyotda mazmuni. San'at hayotni anglash vositasi. San'at – borliqni va ijtimoiy ong taraqqiyoti omili. Badiiy ijodda ma'no va shakl. Asarning obyektiv g'oyasi va muallif g'oyasi. Xarakter, kompozisiya va syujet. Badiiy tasvirning estetik ahamiyati. Tasvirning hayotiyligi va xalqchilligi. Badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli. Badiiy asarning lisoniy xususiyatlari. Badiiy asarlarda adabiyotlararo dialogizm masalasi. Muallif obrazining badiiy asarda aks etishi. So'zlarning ko'chma ma'nosi (troplar va ularning turlari). Intonasiya va sintaksis. Lingvokulturologik aspektda so'zlarning ko'pma'noliligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotidayozuvchining roli.

XVIII asrda tilga o'zgaruvchi, rivojlanuvchi hodisa deb qarashning vujudga kelishi. Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monboddo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshьialarning tilning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini o'rtaga tashlashi va uni rivojlantirishi. XIX asrning boshlarida tilshunoslikka alohida fan sifatida qarashning paydo bo'lishi. Tilshunoslik faktlarining to'planishi va til hodisalariga

qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan yondashish. Tillar o'rtasidagi o'xshashlikning ilmiy jihatdan yoritilishi.Olimlarning bir qancha tillar o'rtasidagi o'xshashlik qarindoshlik, bir umumiy qadimiy bobo tildan kelib chiqqanlik, har bir til keyinchalik mustaqil rivojlangan degan fikrga kelishi. Tilshunoslik faniga va til hodisalariga tarixiy jihatdan yondashish tillarning qarindoshlik darajasini izohlash uchun asos bo'lishi. Tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish ularga tarixiylik jihatidan yondashishi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning alohida fan maydonga kelishiga zamin yaratishi. Qiyoslash tillarni o'rganishda usul, vosita sifatida, tillarni o'rganishga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish tilni tadqiq etishning asosiy maqsadi. Qiyosiy-tarixiy metod tilshunoslikning fan sifatida tan olinishidagi hamda mustaqil fan sifatida tan olinishidagi ahamiyati. Qiyosiy-tarixiy metod tilshunoslikka tarixiy va ilmiy-nazariy asosga ekanligi. Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Villiam Jonsb Fridrix Shengel kabi olimlarning qiyosiy tarixiy-metodning yaratilishiga qo'shgan hissasi. Ushbu metodning to'liq yaratilishiga Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning tilshunoslikka qo'shgan ulkan hissasi. Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usulining muayyan tizimi sifatida. Mazkur metodning qarindosh tillar tarixini o'rganishdagi lisoniy hodisalarning mohiyati, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib berish va tushuntirish vazifalari, Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish jarayonidagi davrlari.

Chog'ishtirma tilshunoslik

Tilshunoslikda yangi ta'limot va yo'nalishlarning paydo bo'lishi. Tipologik metodning xususiyatlari. Tipologik metodning qiyosiy-tarixiy metodddan farqi. Tipologik metod qiyosiy-tarixiy metod bilan hamkorlikda qo'llanadigan va uni to'ldiradigan metod sifatida. Tipologik metodning chet tillarini o'rganishdagi ahamiyati. Tipologik metod uchun tilning qaysi oilaga mansubligi ahamiyatsiz ekanligi. Tillarni tipologik o'rganishda yondashuvlar Tillarni tipologik o'rganishdagi to'rt yondashuv (tasnifiy, xarakterologik, belgili, ichki tizim). Tillarni morfologik tasnifi tillarning morfologik xususiyatlarini – o'zak va qo'shimchalarni o'zaro zid olgan holda o'rganadigan yondashuv ekanligi. Tasnifiy yondashuvning til tiplarini aniqlashdagi ahamiyati. Tasnifiy yondashuv tillarning tiplari, ya'ni agglyutinativ, flektiv va boshqa tipga mansubligini aniqlashning asosiy mezonisifatida. Xarakterologik yondashuv tillardagi muhim xususiyatlar va jihatlar aniqlanishining nazarda tutilishi. Xususiyatlar tilga baho berish asosbo'lishi. Tillardagi muayyan belgilarni aniqlash. Yondashuv asosida tilda mavjud bo'lgan alohida hodisa va sathlarning aniqlanishi. Fonetik tipologiya, leksik tipologiya, morfologik tipologiya, sintaktik tipologiya va boshqalar. Rossiyada qiyosiy tilshunoslikning rivojlanishi. Rus olimlarining qiyosiy tilshunoslikka qo'shgan hissasi. O'zbekistonda qiyosiy tilshunoslikning rivojlanishi. Bo'ronov J.B. qiyociy tipologiya va qiyosiy tilshunoslik yo'nalishi bo'yicha ilmiy maktabi va O'zbekistonda qiyosiy tilshunoslikning rivojlanishiga Abduazizov A.A.Yusupov U.Q., M.T.Irisqulov, A.S.Sodiqov va boshqalarning umumiy va qiyosiy tilshunoslikka qo'shgan hissasi. Xorijiy tillarni o'rganishda qiyosiy tilshunoslikning o'rni. Tillarni qiyosiy o'rganishni rivojlantirishning

O'zbekistondagi istiqbollari. O'zbekistonda chet tillarini o'rganishga davlat darajasida qaralishi va bu sohani rivojlantirishga qaratilgan hukumatning tegishli hujjatlarining qabul qilinishi.

Tarjimashunoslik

Lingvotarjimashunoslik fani va tarjima amaliyoti. Tarjima fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Tarjima nazariyasining predmeti va obyekti. Tarjima muloqotning alohida bir turi sifatida. Tarjima jarayoniga ta'sir etuvchi omillar. Og'zaki va yozma tarjima turlari. Og'zaki va yozma tarjima bosqichlari. Tarjima jarayonida matnning pragmatik adaptasiya masalalari. Matnning kommunikativ xususiyatlari tarjima pragmatik o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishi sifatida. Adekvat resepsiya sharoitida tillararo va milliy-madaniy xususiyatlarning hisobga olish masalalari. Tarjimaning muvofiq va nomuvofiqligi nazariyasi. Ekvivalentlik darajalarini nazariyasi. Tarjima jarayonida kontekstual ma'nolarning xususiyatlari. Matn darajasida tarjimaning asosiy modellari va tamoyillari. Matnlar tasnifi va tarjima usullari. Pragmatik adaptasiya, adekvatlik va tarjimani baholash masalalari. Tarjimashunoslik fanining predmeti Zamonaviy lingvistik tarjimashunoslikning shakllanishi. Lingvotarjimashunoslikka oid asosiy tushunchalar, yo'nalishlar, maqsad, vazifalar va yangi zamonaviy ulublar haqida ma'lumot. Lingvotarjimashunoslikning boshqa fan sohalari bilan o'zaro bog'liqligi. Tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik, lingvistika, qiyosiy stilistika. Lingvotarjimashunoslikda tizim va tizimli yondashuv haqida tushuncha. Tizimli yondashuvning matn haqida yahlit tasavvur ega bo'lishda metodologik roli. Tarjima va semiotika.Tarjima jarayoniga ta'sir etuvchi omillar. Tarjimaning ijtimoiy-madaniy masalalari. Tarjima matnlari xususiyatlarining tarjimaga ta'siri. Og'zaki va yozma tarjima turlari va tarjima bosqichlari. Asosiy tarjima usullari. Asosiy tarjima turlari. Tarjima tamoyillari, matnlar tipologiyasi va tarjima metodlari. Tadrijiy va sinxron tarjima. Tarjimaning asosiy modellari va tarjima nazariyalari. Tarjimaning lisoniy va nolisoniy xarakteri. Tarjimada informasiyaning lisoniy va nolisoniy xususiyatlariyu Demonstrativ, semantik va transformasion, funksional-pragmatik modellar; psixolingvistik, kommunikativ-funksional va germenevtik nazariyalar. Leksikografik manbalardan foydalanish yo'llari. Lug'atlar turlari. Elektron va on-line lug'atlar turlari. Tarjimada tematik, maxsus va lingvistik lug'atlardagi ma'lumotlardan foydalanish yo'llari. Bir va ko'p tillik lug'atlar hamda ensiklopedik lug'atlardan foydalanish. Tarjima nazariyasi kategoriyalari. Ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari mazmuni va turlari. Denotativ va signifikativ ma'nolar. Tushuncha va konsept. Ekvivalentlik nazariyasi ko'pqatlamliligi. Formal va dinamik ekvivalentlik nazariyasi. Pragmatik invariant. Ekvivalentlik normativ kategoriya sifatida. Ekvivalentlik va adekvatlik va tarjimanibaholash. Tarjima xatolari tipologiyasi. Chet tilidagi nutqni aniq tushunmaslikdan kelib chiqadigan xatolar. Chet til sohiblari madaniyati va urf-odatlarini bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan xatolar. Tarjimada leksik, grammatik, stilistik xatolarni aniqlash va tahrir qilish masalalari. Madaniyatlar dialogi. Madaniyatlararo kontaktlardagi tarjimonlik vositachilik faoliyati. Tarjimon madaniyatlararo muloqotda madaniyat vositachisi va retranslyator sifatida.

Tarjimonlik-vositachilik faoliyatida nutq va fe'l-atvorning milliy-madaniy xususiyatlarni hamda muloqot uslubini hisobga olish. Ikki tilli muloqotda adekvatlik va ekvivalentlik (nisbiy tillararo leksik lakunarlik, qisman ekvivalentlik, yuzaki ekvivalentlik). Tarjimonlik faoliyatida lingvomadaniyatshunoslikka aloqador qiyinchiliklar (ochiq ko'rinib turgan– ekvivalenti yo'q leksika va yashirin chalg'ituvchi ekvivalentlik, sosiomadaniy konnotasiya, tarjimonning "chalg'ituvchi do'stlari"). Ekvivalenti yo'q konseptlarning konnotativ ma'nolarini berishning asosiy usullari: transliterasiya, transkripsiya, kalkalash, analogiyasi (o'xshash shakli bilan tarjima qilish, tasviriy tarjima, ma'noni rivojlantirish (perifraza, metonimik tarjima, konkretlashtirish va umumlashtirish va h.k.); struktura transformasiyalari; butun gapni o'zgartirish, kompensasiya (tarjimada yo'qolgan qismlarni qoplash).

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Asosiy adabiyotlar

1. Comparative literature in the age of multiculturalism. Edited by Carles Bernheimer. The John Hopkins University Press. London 1995
2. Основы сравнительного и сопоставительного литературоведения: учеб. Пособ. / Казан. Гос. Ун-т, Филол. Фак., Каф. Сопостав. Филол. И межкультур. Коммуникации; авт.-сост. В.Р.Аминева; науч. Ред. Д.Ф.Загидуллина. –Казань: Казан. Гос. Ун-т, 2007. – 480 с.
3. Шайтанов И.О. Компаративистика и/или поэтика: Английские сюжеты глазами исторической поэтики М.: РГГУ, 2010. — 656 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Gale Contextual Encyclopedia of American Literature. 2009, Gale. USA
2. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University press. 2000.
3. Shunqing Cao. The Variation Theory of Comparative Literature. Shuan University China. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2013. Theories of Comparative Literature – South Valley University
4. А.Н.Веселовский Сравнительное литературоведение [1939-1940]; Литературные течения как явление международное [1867]/
5. В.М.Жирмунский// Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Л., 1979.
6. Погребная Я.В. Сравнительно-историческое литературоведение. Учебное пособие / – 2-е изд., стереотип. – М.: ФЛИНТА, 2011. – 84 с.

Internet saytlar

1. http://teoria-practica.ru/rus/files/arhiv_zhurnala/2011/6/filologiya/galay.pdf
2. http://www.uz-translations.net
3. http://www.booksbooksbooks.ru
4. http://www.literature-online
5. http://www.twirpx.com/file/546814/
6. http://download.springer.com/static/pdf/909/bfm%253A978-3-642-34277-6%252F1.
7. http://www.svu.edu.eg/links/ictp/e_learning/links/courses/dr_%20khalil/THEORIES%20OF%20C%20L.3.pdf

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Asosiy adabiyotlar:

1. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 2009.
2. Левицкий Ю.А. Общее языкознание. - М., 2009.
3. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Umumiy tilshunoslik. –Andijon,2007.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. –М., 2007.
5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –T., 2010.

6. Fayzullayeva E.M., Saidova M.S., N.A.Mavlyanova. The Guidebook on Comparative Typology of the English, Turkic and Russian Languages. – T.,2010.
7. Бушуй Т.А.Основы теории контрастивной лексикографии. – Т.: Фан, 2001.
8. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T., 2010.
9. Yusupov U.K. Ingliz va o'zbek tillarning chog'ishtrma lingvistikasi. – T., 2013
10. Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. T., 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Маслова В.А.Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: 2004.
2. Mechkovskaya N.B. Umumiy tilshunoslik. Tillarning tuzilmaviy va ijtimoiy tipologiyasi. –Toshkent, 2006.
3. Михалев. А.Б.Общее языкознание. История языкознания. –М., 2008.
4. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –T., 2001.
5. Safarov Sh.Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax. «Sangzor» - 2006.
6. Рождественский Ю.В. Лекции по общему языкознанию. – М., 1990.
7. Шарофутдинова Н.С. Теория и история лингвистической науки. –М., 2007.
8. Yusupov U.K.Inglizcha o'zbekcha grammatik diaformalar. – T., 2016.

Internet saytlari:

1. www.susov.ru
2. www.ziyo.net
3. www.google.uz
4. www.tdpu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.edu.uz
7. www.tdpu-INTRANET.ped
8. www.nutq.intal.uz

TARJIMASHUNOSLIK

Asosiy adabiyotlar:

1. Виссон Л. Русские проблемы в английской речи (слова и фразы в контексте диалога культур). – М.: Р.Валент, 2005.
2. Гарбовский Н.К. Теория перевода: Учебник. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004.
3. Гришаева Л.И. Цурикова Л.В. Введение в теорию межкультурной коммуникации. – М.: Академия, 2007.
4. Кабакчи В.В. Практика англоязычной межкультурной коммуникации. In English about Russia and the Whole World. – СПб.: Союз, 2007.
5. Албрехт Йорн (1973): Linguistik und Übersetzung. Tübingen, Niemeyer.
6. Архипов А.Ф. Самоучитель перевода. – Москва: Высшая школа, 1991.
7. Koller, Werner (1992): Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Heidelberg/Wiesbaden, Quelle & Meyer.

8. Lorenz, Sabine (1996): Übersetzungstheorie, Übersetzungswissenschaft, Übersetzungsforschung. In: Arnold, Heinz Ludwig/Detering, Heinrich (edd.): Grundzüge der Literaturwissenschaft. Muenchen.
9. Pöchhacker, Franz (2000). Dolmetschen. Tübingen, Stauffenberg.
10. Prunc, Erich (2001). Einführung in die Translationswissenschaft. Bd.1.Orientierungsrahmen. Universität Graz, Institut für Translationswissenschaft.
11. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
12. Schreiber M. Grundlagen der Übersetzungswissenschaft. Tübinger: Max Niiemeyer Verlag, 2006.
13. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва, 1968.
14. Бархударов Л.С. Язык и перевод. - М.: Международные отношение, 1975. - 230 с.
15. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. - Москва: Просвещение, 1983. - 290 с.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Newmark P. A Text Book of Translation. – Shanghai: Shanghai Foreign Languages Education Press, 2001.
2. Борисова Л.И., Т.А. Парфенова. - Справочник по специальному переводу. М.: НВИ-тезаурус, 2005.
3. Бреус В. Основы теории и практики перевода с русского на английский язык. – М.: УРАО, 2000.
4. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001.
5. Тер-Минасова С.Г. Война и мир языков и культур. – М.: Слово, 2008.

Internet saytlari:

1. http://linguists.narod.ru/downloads.html
2. http://www.durov.com/study/1126965784-307.html
3. http://youreng.narod.ru/teoper.html
4. http://tpot.ru/index.html
5. http://www.langinfo.ru
6. http://www.lingvoda.ru/forum/actualthread.aspx?bid=2&tid=244
7. http://www.twirpx.com/rss/category/4175/

Baholash mezoni

10.00.06- "Qiyosiy dabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" ixtisosligi imtihonni baholash mezonlari

86-100 ball olish uchun:

-variant savollarining barchasiga to'g'ri javoblar yozilgan bo'lsa;
-o'quv rejadan tashqari zamonaviy materiallardan xabardor bo'lsa;
-qonun-qoidalar, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlar, formula va tenglamalar to'g'ri yozilsa;
-bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyligi saqlansa;
-bayonda orfografik va grammatik kamchiliklar uchramasa.

71-85 ball olish uchun:

-savollarga yozilgan javoblar to'g'ri, ammo dastur talablari doirasi bilan cheklangan;
-javoblarda ilmiylik buzilmagan;
-bayon mazmunida mantiq saqlangan;
-qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushuncha va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;
-bayonda orfografik va grammatik xatolar uchramasa;
-berilgan topshiriqlarning bittasiga to'liq javob yozilmagan bo'lsa.

55-70 ball olish uchun:

-savollarning uchdan ikki qismiga to'g'ri javob yozilgan bo'lsa;
-savollarga yozilgan javoblar yuzaki, ammo ayrim xatoliklarni hisobga olmaganda, umuman to'g'ri;
-bayonda ba'zan mantiqiy chalkashliklar qayd etilsa;
-qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilsa;
-bayon orfografik va grammatik tomondan yaxshi bo'lmasa.

0-54 (qoniqarsiz) ball kimga qo'yiladi:

-savollarning uchdan ikkisiga javob yozilmasa, yoki umuman javob yozilmagan bo'lsa;
-savollarga yozilgan javoblar aniq bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa;
-savollarga berilgan javoblar noaniq va mantiqiy chalkash bo'lsa ;
-ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilsa;
-bayon matnida orfografik va grammatik xatolar ko'p bo'lsa.